

Besh tashabbus olimpiadasi



Besh tashabbus olimpiadasi

"Besh tashabbus" olimpiadasi doirasida "Yoshlar ishlari Agentligi kubogi"ni qo'lga kiritish uchun o'tkazilayotgan shaxmat bo'yicha musobaqalarning sektor kesimidagi bosqichi tumanning 1, 3 va 4-sektorlarida ham bo'lib o'tdi.

Guliston mahalla fuqarolar yig'ini yoshlar yetakchisi Mehridin Muxtorovning bizga ma'lumot berishicha, musobaqalarning birinchi bosqichida sektorning 7 ta mahallasidan qariyb 150 nafar shaxmatchilar qatnashdi. Sektor kesimidagi musobaqalarda 42 nafar shaxmatchilar birinchilik uchun o'zaro bellashdilar.

Aytganimizdek, sektor kesimidagi musobaqalar g'olibi tuman bosqichiga yo'llanma oladi. Sektor kesimidagi bellashuvlar yosh shaxmatchilar o'rtasida 30 aprelgacha davom etadi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-04-27 10:36:15